XALQ DEPUTATLARI QIZIRIQ TUMANI KENGASHINING QARORI

190800, Qiziriq tumani, Ibn Sino ko'chasi 13-uy, tel.: 0(376) 35-91-181, fax: 0(376) 35-91-800

2022 - yil 20 - iyul VI-52-116-8-113-K/22 Qiziriq tuman hokimligi

Tumandagi ayrim mahalla, ko‘chalar, qabristonlar, istirohat bog‘i hamda ziyoratgohlarning nomlarini o‘zgartirish va tasdiqlash to‘g‘risida.

“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida ”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida ”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 6-moddasiga asosan xalq deputatlari Qiziriq tumani Kengashi **qaror qiladi:**

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 14-apreldagi 01-14-518-son yig‘ilish bayoni ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tumanda nomlari o‘zgarayotgan hamda tasdiqlanayotgan qabristonlarning ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo‘limi (F.Xo‘janov), tuman qurilish bo‘limi (Q.Xo‘jamqulov), Davlat kadastrlar palatasi Qiziriq tumani filiali (C.Rustamov) tuman hokimligi bilan birgalikda nomlari o‘zgartirilgan hamda tasdiqlangan mahalla, ko‘chalar, qabristonlar, istirohat bog‘i hamda ziyoratgohlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman ichki ishlar bo‘limi (G‘.Xo‘jamqulov) nomlari o‘zgargan hamda tasdiqlanayotgan mahallalar va ko‘chalarda yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga, mazkur hudud aks ettirilgan belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini amalga oshirsin.

5. Tuman qurilish bo‘limi (Q.Xo‘jamqulov) hududlarda nomlari o‘zgartirilgan geografik obyektlarga yangi nomlari yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

6. Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Bo‘riyev), “Taraqqiyot” gazetasi (Ch.Alimov)ga mazkur qarorni rasman e’lon qilish va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish topshirilsin.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (O‘.Yangiboyev), xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Majidova) zimmalariga yuklatilsin.

8. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan kuchga kiradi.

Tuman kengash raisi **Pardayev.R.U**

Xalq deputatlari Qiziriq tuman
Kengashining
2022 yil 20 iyuldagi
VI-52-116-8-113-K/22-son qaroriga
1-ilova

Surxondaryo viloyati Qiziriq tumanidagi qabristonlarning

nomlari ro‘yxati

T/r	Geografik obyekt ningturi	Joylashgan o‘rni	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tumanva viloyat komissiyasi tomonidan berilgan takliflar	Ekspertiza xulosasi
1	2	3	4	5	6
1	Qabriston	“Takiya” m.f.y	Takiya ota	Takiya ota	Takiya ota
2	Qabriston	“Navro‘z” m.f.y	Cho‘lponxon eshonbobo	Cho‘lponxon eshonbobo	Cho‘lponxon eshonbobo
3	Qabriston	“Yettimqum” m.f.y	Sayid Saydullaxon vali	Sayid Saydullaxon vali	Sayid Saydullaxon vali
4	Qabriston	“Qishloqazon” m.f.y	Chilgazota	Chilgazota	Chilgazota
5	Qabriston	“Buyuk kelajak” m.f.y	Uchshahid	Uchshahid	Uchshahid
6	Qabriston	“Zartepa” m.f.y	AbdirahmonAVF	Abdirahmon AVF	Abdirahmon AVF
7	Qabriston	“Zartepa” m.f.y	Sayid Abu Vaqqos	Sayid Abu Vaqqos	Sayid Abu Vaqqos